

ISLOMIY BANKLAR FAOLIYATI

Olchinboyev Otabek Abdusamad o‘g‘li

Andijon Mashinasozlik intituti

“Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

E-mail: olchinboyev96@gmail.com

Raxmatullayeva Mushtariy Ortig‘ali qizi

Andijon mashinasozlik instituti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada islomiy moliya va islomiy bank mohiyati, afzalliklari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: islom moliyasi, islom banklari, moliyalashtirish, qimmatli qog‘ozlar, shariat, fiqh, kapital, investor, pul, tovar, omonatchi.

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о сущности и преимуществах исламских финансов и исламского банкинга.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские банки, финансирование, ценные бумаги, шариат, юриспруденция, капитал, инвестор, деньги, товар, вкладчик.

ABSTRACT

The article talks about the nature and advantages of Islamic finance and Islamic banking.

Key words: Islamic finance, Islamic banks, financing, securities, Sharia, jurisprudence, capital, investor, money, commodity, depositor.

2020-yil 4-fevral kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo‘lib o‘tgan majlisda Markaziy bank raisi o‘rribbosari Botir Zohidov shu yilning o‘zida O‘zbekistondagi 3 ta bankda islomiy moliyalash joriy etilishi mumkinligini aytgan edi.

So‘ngi yillarda 500 ga yaqin islomiy moliyaviy muassasalar oddiy chakana moliyalashtirishdan tortib, korporativ tarkibli qimmatli qog‘ozlarni chiqarish usullari bilan mablag‘ jalb etishga qadar bo‘lgan keng miqyosdagi xizmatlarni taklif etmoqdalar. Moliyalashning bu tizimi foyda va zararni bo‘lishish xamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni o‘zida namoyon qilish bilan an’anaviy banklardan farq qiladi. Islomiy banklarning an’anaviy banklardan farqli o‘laroq o‘z faoliyatida quyidagi qoidalarga tayanadi:

- Pul-puldan paydo bo‘lmasi kerak, ya’ni kapitalning o‘sishi sof pul aylanmasi sohasida amalga oshishi mumkin emas;

- Investorlarning daromadi savdo va ishlab chiqarishga qilingan investitsiyalar bilan bog‘liq bo‘lishi kerak;

- Bitim ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat sherikchilik asosida qurilishi lozim;

- Pul tovar xisoblanmaydi, u faqat qiymat o‘lchovidir.

Islomiy banklar faoliyati xususiyati quyidagi jihatlari bilan tarifланади:

- Islom fiqhiga muvofiq faoliyat ustidan ichki nazorat tarkibi (shariat bo‘yicha kuzatuv kengashi, shariatga muvofiqlilikni ta’minlovchi ichki audit vazifikasi) ilo korporativ boshqaruvni ko‘rish;

- Xatar-menejmentining vazifikasi mahsulot(xizmat)larning xususiyati va bank aktivlarining, ayniqsa bankning qisqa muddatli likvidlitigining shariatga muvofiqligini taminlash borasidagi tavsifini aks ettiradi;

- Mijoz va omonatchilar faoliyati natijasi(foyda va zarar)da mijoz va omonatchilarning ishtiroki;

- Islomiy bank mahsulotlari va xizmatlari xususiyatini ifoda etadigan bank amaliyotlari hisobi standartlari;

- Bank faoliyatining omonatchilar boxabarligi uchun butkul ochiqligi. Omonatchi bankning sheriklaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

Islomiy banklar aksariyat hollarda omonatchilar mablag'larini o'zlarining mablag'lari bilan birlashtiradilar. Keyin uni investitsiyaga yo'naltiradilar hamda olinga foyda omonatchi va bank o'rtaida taqsimlanadi. Agar turli shakldagi investitsion hisob-varaqlar taklif etilayotgan bo'lsa, u holda bank oldida foydani taqsimlash vazifasi paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, islomiy banklar maxsus investitsion (cheklanmagan investitsion) hisob varaqlarni ham ochishlari mumkin, bu omonatchiga o'z mablag'larini investitsiya qilish yo'nalishini tanlash imkoniyatini beradi. Har bir maxsus investitsion hisob varaq bo'yicha so'ndirish muddati va foydani taqsimlash alohida kelishib olinadi.

Cheklanmagan investitsion hisob-varaq egalari o'z mablag'larini tasarruf etish bo'yicha bankka butkul erkinlik beradilar, bunda pullarni joylashtirish shariat qoidalariga zid kelmasligi shart qilinadi(masalan, alkagol bilan ta'minlaydigan korxonalarga sarmoya kiritish taqiqlanadi). Ya'ni, islom prinsplariga zid bo'limgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga kiritish joiz qilib belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. E.A. Baydaulet, "Islomiy moliya asoslari" T-2019 yil, tarjimon va to'ldiruvchi H. Hasanov
2. Sh. Abdullayeva, "Bank ishi", Toshkent-2003 yil.
3. www.islomonline.uz sayti.